FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SONLARGA OID PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING O‘XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

Hamdamova Muqaddas Xamidovna
Tillar kafedrasining o‘qituvchisi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya
Bu tezisda, fransuz va o‘zbek tillarida raqam hamda sonlar ishtirok etgan paremiologik iboralar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodida keng qo‘llaniladigan maqol va matallarda sonlarning ramziy ma’nolari, milliy qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘rni hamda ikki til o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganiladi. Bu o‘rganishlar qiyosiy tadqiq qilinishi natijasida raqamlarning xalqlar dunyoqarashi, ularning turmush tarzidagi madaniy mentalitetlari bilan uzviy bog‘liqligi tavsif etiladi.

Kalit so‘zlar: *Paremiologiya, lingvomadaniy, maqol, matal, son, raqam, fransuz tili, o‘zbek tili, ramziy ma’no, hikmatli so‘zlar.*

KIRISH

O‘zbek va fransuz madaniyatida (aforizm, matal maqol, hikmatli so‘zlar) bu iboralardagi raqamlar kamdan-kam hollarda tom ma’noda bo‘ladi — ular ramziy, madaniy va tarixiy ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Paremiologik birliklar xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lib, ularda xalqning asrlar davomida xalqchil bo‘lib, tarixan rivojlanganligi, urf-odati va dunyoqarashini anglatadi. Fransuz va o‘zbek tillarida sonlar qatnashgan paremiologik birliklar ko‘p uchraydi. Ular asosan hayotiy tajriba, odob-axloq, hulqiy pand-nasihat yoki umumlashgan fikrni ifodalash uchun ishlatiladi.

ASOSIY QISM

O‘zbek va fransuz tillarida raqamlarga oid paremiologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbek tilida sonlar ishtirok etgan paremiologik birliklar, o‘zbek xalq maqollarida juda keng qo‘llanadi. Masalan: “Yetti o‘lchab, bir kes” ushbu maqolda ehtiyotkorlik va puxta o‘ylab ish qilish g‘oyasi ifodalangan. Bu yerda yetti soni ko‘p marotaba o‘ylash, tekshirish ma’nosini bildiradi.

Fransuz tilida ham sonlar qatnashgan maqollar keng tarqalgan. Ular ko‘pincha hayotiy tajriba yoki mantiqiy xulosani ifodalaydi. Masalan: “Deux têtes valent mieux qu’une” (Ikki bosh bir boshdan yaxshiroq) bu maqolda jamoaviy fikrlashning ustunligi ifodalanadi.

O‘xshash jihatlar: Har ikki tilda ham sonlar xalq tajribasini ifodalashda ishlatiladi. Sonlar ko‘pincha umumlashtiruvchi yoki ramziy va ma’joziy ma’noga hamda tarbiyaviy mazmunga ega.

Madaniy kontekst va semantik farqlari: O‘zbek tilida “qirq” (qirq kunlik marosimlar, “qirqiga chidagan”) islomiy va Sharq an’analarini aks ettiradi, bu fransuz tilida deyarli uchramaydi. Fransuz maqollarida “13” baxtsizlik ramzi (“vendredi treize”), katolik e’tiqodidan kelib chiqadi, o‘zbekchada esa bunday son yo‘q. O‘zbek

maqollari ko‘proq metaforik va tabiatga yaqin (“yetti olam”), fransuzchalar esa ko‘proq pragmatik va zamonaviy (“se tenir à quatre épingles” – haddan tashqari chiroyli kiyinish). O‘zbekchada sonlar ko‘pincha maslahat sifatida (“yetti o‘lchab bir kes”), fransuzchada esa omad yoki ogohlantirishda (“à sept le bonheur”).

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, Fransuz va o‘zbek tillarida sonlar ishtirok etgan paremiologik birliklar xalqning madaniy qarashlari, tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettiradi. Qiyosiy lingvokulturologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek maqollarida sonlar ko‘proq ramziy va an’anaviy ma’noga ega bo‘lsa, fransuz maqollarida ular mantiqiy xulosani ifodalash uchun qo‘llanadi. Har ikkala til ham insoniyatga xos umumiy tafakkur modellarini aks ettiradi. Fransuz tilida sonlar bilan bog‘liq mashhur maqollar ko‘pincha diniy, xalq e'tiqodi va kundalik hayot tajribalariga asoslanadi. Bu maqollar madaniy mentalitetni aks ettirib, ko‘proq 3, 7, 13 kabi sonlarni o‘z ichiga oladi. Demak, paremiologik birliklarni o‘rganish turli xalqlarning madaniy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu sababli sonlar ishtirok etgan aforizmlar, hikmatli iboralar, matallar va maqollarni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish qiyosiy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tiborga olinishi, bugungi kun ilm-fan taraqqiyotida maqsadga muvofiq deb hisoblashimiz mumkin.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev, Sh. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”/ Sh. Rahmatullayev. – Toshkent: “Universitet nashriyoti”,2000.
2. Назарян, А.Г. Идиоматические выражения французского языка / А.Г. Назарян. - М.: «Просвещение», 1978.
4. Mamatov A. O‘zbek paremiologiyasi. Toshkent.
5. Rey A. Dictionnaire des proverbes français. Paris.

Internet saytlar:

1. www.bimm.uz
2. www.press-uz.info
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.pedagog.uz